

**Tabiiy tolalardan olingan olovbardosh matolarning sifat
ko‘rsatkichlarini baholash**

**Doktorant Y.I. Sirojiddinova
Toshkent to‘qimachilik va
yengil sanoat instituti asisstenti**

Annotatsiya; Ushbu maqolada tabiiy tolalardan olingan iplarning sifat ko‘rsatkichlarini hamda olovbardoshlik xususiyatini oshirish jarayonlari keltirilgan.

Kalit so‘zi; tanda va arqoq iplari, tabiiy tolalarning miqdori, oxor tarkibi.

Hozirgi kunga kelib to‘qimachilik sanoatida turli tarkibli tolalardan ishlatilish maqsadiga ko‘ra ip yigirib olinishi keng yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek 35% paxta va 65% xrizotil tolasi, 30% paxta va 70% xrizotil tolasi, 25% paxta va 75% xrizotil tolasi miqdorida aralashma tarkibli chiziqiy zichligi 60 tekslikdagi, buramlar soni 880 ta bo‘lgan to‘qima uchun tanda va arqoq iplari “Real Teks”MCHJ klaster korxonasida pnevmomexanik ip yigirish mashinasida yigirib olindi. Iplarning ko‘rsatkichlari esa “O‘zbek & Turk” test markazi sinov laboratoriyasida sinov ishlari olib borildi va tahlil natijalari olindi.[1]

Hozirgi kunda o‘t o‘chiruvchi xodimlarning mahsus kiyimi uchun mo‘ljallangan olovbardosh matoga ehtiyoj borligi sababli ilmiy tadqiqotlar ishlari olib borish natijasida uch xil foizlitabiyy tola aralashmali tanda va arqoq iplarni maxsus tarkibli oxor bilan oxorlab olish natijasida olovbardoshlik xususiyati oshirildi.[2] Tajriba ishlari TTESI “to‘qimachilik matolari texnologiyasi” kafedrasi laboratoriyasida mavjud yakka ipni oxorlab olish (o‘quv uchun) dastgohida iplar oxorlab olindi. Dastgohning tazligi 150 m/ s , qo‘ritish shkafining harorati 38 °S va oxorning harorati 50 °S da bo‘lgan holda tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Oxor tarkibi; kallogen, PAA(poliakrilamed) karbomed va gelitserin kabi kimyomiy moddalar eritmasidan tayyorlandi. Ilmiy tadqiqot ishlari natijasida olingan tanda va arqoq iplar ko‘rsatkichlari laboratoriya sharoyita sinab ko‘rildi va tahlil natijalari xulosasi olindi. [3]

Oxorlanmagan ipning ko'rsatkichlari


Ko'rsatkichlar nomi	35%paxta va xrizotil 65%	30%paxta va xrizotil 70%	25% paxta va75% xrizotil
Chiziqiy zichligi tex	60,0	60.0	60,0
Uzilishdagi uzayishi %	4,97	4.89	4,54
Uzilish kuchi cN	542,1	485,90	384,06
Solishtirma uzish kuchi cN/tex	8,93	8,11	6,40

Oxorlangan ipning ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	35%paxta va xrizotil 65%	30%paxta va xrizotil 70%	25% paxta va75% xrizotil
Chiziqiy zichligi tex	60,7	60.7	60,7
Uzilishdagi uzayishi %	4,97	4.89	4,54
Uzilish kuchi cN	568,0	503,6	420,5
Solishtirma uzish kuchi cN/tex	9,35	8,3	6,9


Turli tola tarkibli iplarning solishtirma uzilish kuchining o'zgarishi

☒ -oxorlangan; ☺ -oxorlanmagan.



Turli tola tarkibli iplarning solishtirma uzilish kuchining o‘zgarishi

☒ -охорланган; ⚫ -охорланмаган.



Xulosa; Xrizotil toiasi va pa paxta tolali aralashma tarkibli tuquv ipini maxsus oxorlash asosida olovbardosh materiallarning yong‘in-texnik xossalari hamda to‘qimachilik matolari yong‘inga xavfiliyi bo‘yicha yong‘in-texnik tasniflari o‘rganildi. Olingan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Xrizoti tolali aralashma tarkibli tanda va arqoq iplar o‘t o‘chiruvchi xodimlar kiyimi uchun ishlab chiqariladigan to‘qima talablariga mos ekanligi va olovbardoshlik hamda havo o‘tqazuvchanlik xususiyati yuqoriligi, solishtirma uzilish kuchi kamayganligi aniqlandi. [4]

Адабиётлар руйхати

1. Y.I.Sirojiddinova, S.A.Xamroyeva "Evaluation of the fire resistance properties of yarn and fabric with a structure made of chrizotilos" At-2"and cotton feber"Scences &Advancements. 2021-y10-may
2. Y.I. Sirojiddinova, S.A.Xamraeva, K.F.Toshkulova "Application of natural chrysotile fiber in production of refractory fabric in textile industry" ISSN: 2350-0328 International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 9, Issue 2 , February 2022 Copyright to IJARSET www.ijarset.com 19031
3. Y.I Sirojiddinova Doctoral candidate at the Tashkent Institute of Textile and Light Industry Sanovar Atoevna Hamrayeva Professor of the Tashkent Institute of Textile and Light Industry Kamola Faxriddinovna "ASSESSMENT OF THE QUALITY OF NATURAL FIBRE FIRE SEEDS" "Ekonomika i sotsium" №2(93) 2022 www.iupr.ru
4. Y.I.Sirojiddinova, S.A Xamrayeva "At-2 Хризотил ва пaxta tola tarkibli ip va to'qimaning olovbardoshlik xususiyatini baholash" "O'zbekiston to'qimachilik muommolari ". Toshkent, TTESI,2021,04- aprel.